



HUQUQIY TA'LIMDA RAQAMLI MADANIYAT

Saidova Nasiba Sadriddin qizi

Navoiy davlat universiteti

2-kurs Magistranti

ANNOTATION: *This article analyzes the importance of legal education for young people in the context of the massive flow of information emerging in the era of globalization, as well as its role in the modern digital environment. It is substantiated that in conditions of increasing digitalization, developing digital culture and digital competencies among students is a crucial factor for effectively mastering legal knowledge. The article highlights components of digital culture—such as digital competence, information culture, digital communication culture, and the formation of lawful behavior. It also emphasizes that the use of digital tools (Google, Classroom, Quizizz, Kahoot!, and others) significantly enhances the effectiveness of the process of acquiring legal knowledge. It is noted that integrating digital culture into legal education fosters students' critical thinking, strengthens their understanding of rights and responsibilities, and improves their ability to consciously apply laws and regulations in the online environment.*

KEYWORDS: *Legal education; digital culture; digital competence; information culture; digital communication; legal awareness; lawful behavior; information technologies; legal education; youth rights; digital literacy.*

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada globallashuv jarayonida shakllanayotgan ulkan axborot oqimi sharoitida yoshlar uchun huquqiy tarbiya ahamiyati hamda uning zamonaviy raqamli muhitdagi o'rni tahlil qilingan. Raqamlashtirish kuchaygan sharoitda o'quvchilarda raqamli madaniyat va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish huquqiy bilimlarni samarali o'zlashtirishning muhim omili ekani asoslab berilgan. Maqolada raqamli madaniyatning tarkibiy qismlari-raqamli kompetensiyali axborot madaniyati, , raqamli kommunikatsiya madaniyati va huquqiyxatti-harakatni shakllantirish kabi aspektlar yoritilgan. Shuningdek, raqamli vositalardan (Google, Classroom, Quizizz, Kahoot! Va boshqalar) foydalanish huquqiy bilimlarni egallash jarayonini samarali tashkil etish ta'kidlanadi. Raqamli madaniyatni huquqiy ta'limga integratsiya qilish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi, huquq va majburiyatlarni anglashini kuchaytirishi, shuningdek, internet muhitida qonun-qoidalarini ongli ravishda qo'llash ko'nikmasini mustahkamlashi qayd etilgan.*

KALIT SO'ZLAR: *Huquqiy tarbiya; raqamli madaniyat; raqamli kompetensiya; axborot madaniyati; raqamli kommunikatsiya; huquqiy ong; huquqiy*



xatt-harakat; axborot texnologiyalari; huquqiy ta'lim; yoshlar huquqi; raqamli savodxonlik.

Bugungi globallashuv sharoitda dunyoning turli nuqtalarida har soniyada turlicha voqealar va jarayonlar ro'y bermoqda. Ba'zan ular inson tafakkuriga sig'mas darajada murakkab bo'lib, buning natijasida ulkan hajmdagi yangi axborot va ma'lumotlar shakllanib bormoqda. Hozirgi kunda shakllanayotgan ulkan axborot oqimi sharoitda yoshlar mavjud ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish va ular orasidan zarurlarini ajratib olishi uchun samarali tarbiya, xususan, huquqiy tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir. Bugunga kelib yoshlarning hayoti turli gadjetlar va internet resurslarisiz tasavvur etib bo'lmaydigan darajada raqamlashtirilgan. Shu bois ularga huquqiy tarbiya berish jarayonini zamon talablari va texnologik imkoniyatlarga mos ravishda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy tarbiya-bu shaxslarning davlat tomonidan belgilangan qonun va me'yoriy-huquqiy qoidalarga ongli ravishda rioya etishi hamda ularni kundalik ijtimoiy hayotda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tizimli pedagogik jarayondir. Bugungi kunda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda huquqiy tarbiyani samarali tashkil etish, avvalo, o'quvchilarda yetarli darajada raqamli madaniyatning shakllanganligini talab etadi. Raqamli kompetensiyalar huquqiy bilimlarni zamonaviy raqamli muhitda ongli qabul qilish va amaliyotga tatbiq etishning muhim omillaridan biridir. Raqamli madaniyat- bu inson faoliyatining barcha sohalariga raqamli texnologiyalar kirib kelishi natijasida shakllanadigan ijtimoiy va madaniy jarayonlar majmuasidir. U nafaqat texnik vositalardan foydalanish malakasini, balki axborot bilan ishlash, onlayn muhitda muloqot qilish, shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash va raqamli axloq normalariga rioya etish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Huquqiy ta'limda raqamli madaniyat quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Raqamli kompetensiya - texnologik vositalardan samarali foydalanish, onlayn muhitda axborotni tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri baholash qobiliyati
2. Axborot madaniyati-huquqiy ma'lumotlarni to'plash, saqlash, baholash va ulardan mas'uliyatli foydalanish
3. Raqamli kommunikatsiyamadaniyati- onlayn muhokama, forum yoki ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy mavzularni o'dob bilan muhokama qilish, boshqalarning fikrini hurmat qilish
4. Huquqiy xatti-harakatni shakllantirish- raqamli muhitda (masalan, internetda mualliflik huquqi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi) qonuniy me'yorlarga rioya qilishni o'rganish.

Raqamli madaniyatni huquqiy ta'limga tatbiq etish natijasida o'quvchilar:

- Huquqiy axborotni izlash va tahlil qilishda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- Onlayn muhitda o'z huquq va majburiyatlarini biladi;



- Raqamli etikani, ya'ni internetdagi axloq va qonun qoidalariga amal qilishni o'rganadi;

- Huquqiy muammolarni virtual makonda tahlil qila oladi.

Shu jihatdan, raqamli madaniyat o'quvchilarning huquqiy ongini rivojlantirishda va zamonaviy huquqiy xatti-harakatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Raqamli ta'lim vositalari (masalan: *Google, Classroom, Quizizz, Kahoot!* va *boshqalar*) huquqiy bilimlarni o'rgatish bilan bir qatorda, ularni ma'suliyatli va qonuniy yo'lda qo'llashni ham o'rgatadi.

Biroq raqamli madaniyatni samarali joriy etish uchun o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarda texnik infratuzilmani rivojlantirish va o'quvchilarning axborot xavfsizligi bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish lozim. Shu tarzda huquqiy ta'limda raqamli madaniyatni shakllantirish nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshiradi, balki yoshlarning huquqiy madaniyatini ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belenkova L. Yu., Skudnyakova E. V., Sazanova S. A. "Inklyuziv oily ta'lim sharoitida raqamlashtirish va raqamli madaniyat". International Journal of Early Childhood Special Education, 2002

2. Abdullayeva, D. (2021). Huquqiy madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.

3. Xudoyberdiyev, A (2020) . Raqamli madaniyat va zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent. Innovatsiya